

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Каримов</b> Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
<b>D.E.Normatova</b> Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlari .....	210
<b>B.E.Xusanov</b> Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
<b>N.M.Axmadiyev</b> Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati .....	220
<b>N.N.Teshayev</b> Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari .....	223
<b>K.G’.Kamolova</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni .....	227
<b>M.M.Qaxxorova, B.Farfiev</b> Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
<b>K.U.Sharipova</b> Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
<b>S.A.Xayrullayev</b> Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
<b>O’.X.Rajabov</b> Maslahat – konsensusning sinergetik omili .....	248
<b>Sh.T.Abbosova</b> Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch .....	251

---

SIYOSAT

<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
<b>A.A.Abdilxamedov</b> Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
<b>B.Y.Paluaniyazov</b> Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
<b>U.M.Kuranov</b> Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati .....	270

---

ТАРИХ

<b>Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev</b> O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
<b>M.X.Исамиддинов</b> Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
<b>X.Raxmatillayev</b> Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar .....	314
<b>F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova</b> Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari .....	318
<b>N.S.Abdullayeva</b> Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
<b>S.B.Xakimova</b> “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
<b>Ш.Т.Темиров</b> Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие.....	332

**O‘ZBEKISTONNING SAMARQAND VOHASI JANUBIY TOMONIDAGI 2014-YILGI  
ARXEOLGIK DALA QIDIRUV ISHLARI HISOBOTI<sup>2</sup>**

**ОТЧЕТ О ПОЛЕВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ В ЮЖНОЙ ЧАСТИ  
САМАРКАНДСКОЙ ДОЛИНЫ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2014 ГОД.**

**REPORT OF 2014 ARCHAEOLOGICAL FIELD RESEARCH IN THE SOUTHERN PART  
OF THE SAMARKAND VALLEY OF UZBEKISTAN**

**Amridin Berdimurodov Ergashevich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Madaniy meros agentligi Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. T.f.n.  
katta ilmiy xodim

**Mutalib Xasanov<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası, professor

**Ma Jian<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>Shimoli-g‘arbiy universiteti Madaniy meros instituti, PhD

**Vang Jianxin<sup>4</sup>**

<sup>4</sup>Ipak yo‘li arxeologik tadqiqot markazi, Shimoli-g‘arbiy universiteti, tfd, professor

**Chen Aidong<sup>5</sup>**

<sup>5</sup>Shaanxi provinsiyasi arxeologik tadqiqotlar instituti, PhD

**Chjou Xinying<sup>6</sup>**

<sup>6</sup>Xitoy Fanlar Akademiyasi Umurtqali hayvonlar paleontologiyasi va paleoantropologiya  
instituti, professor, bfd

**Komiljon Arziyev Daniyorovich<sup>7</sup>**

<sup>7</sup>Madaniy meros agentligi Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institute  
Phd.kichik ilmiy xodim

**Annotatsiya**

*G‘arbiy Tiyanshanning g‘arbiy chekkasida joylashgan Samarqand vohasi atroflari suv va yaylovga boy. Bronza davridan boshlab saklar, sarmatlar, yuejilar, eftaliylar kabi chorvador xalqlar yashashgan va chorvachilik bilan shug‘illanishgan. 2014-yilning aprel-may oylarida, Xitoyning Shimoli-g‘arbiy universitetining Buyuk ipak yo‘li madaniy merosni muhofaza qilish va arxeologik tadqiqot olib borish markazi bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti bilan hamkorlikdagi guruh Samarqand vohasining janubiy hududlaridagi qadimgi chorvador xalqlarning saqlanmalarini aniqlash bo‘yicha arxeologik qidiruv-tadqiqot ishini boshladi. Tadqiqot davomidan Sazag‘on va Zinak hududlarida katta tipda ko‘chmanchilarning turar-joy yodgorliklarini, katta miqdorda turli davrlarga oid, turli tiplarga oid, turli kattalikdagi qabrlar, turar-joy, yo‘llarning saqlanmalariga aniqliklar kiritdi. Oldingi arxeologik tadqiqotlar natijalarini birlashtirgan holda, ikki obyektning yoshi, madaniy yodgorliklari, turar-joy shakli kabi masalalarni o‘rganishga harakat qilindi.*

**Аннотация**

*Самаркандский долина, расположенный на западном конце гор Западного Тянь-Шаня, окружен пышной водой и травой. Начиная с бронзового века, многие кочевые народы, такие как сакы, сарматы, да юэцжи и шухуан, вели активный и скотоводческий образ жизни. С апреля по май 2014 года совместная археологическая группа в составе Научно-исследовательского центра по сохранению культурных реликвий Шелкового пути и археологии Северо-Западного университета в Китае и Института археологии Академии наук Республики Узбекистан провела археологическое обследование древних кочевников. Останки на южной окраине Самаркандской котловины. Подтверждены и исследованы два крупных кочевых поселения в Сазагане и Знаке, обнаружено большое количество гробниц, жилищ, дорог и других остатков различных периодов.*

<sup>2</sup>Ushbu maqolaning tarjimoni : **Kambarov Nasibillo**, Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston. Buyuk Ipak yo‘li hamkorlikdagi arxeologik tadqiqot markazi, Shimoliy-g‘arbiy universitet, Xi‘an, Xitoy.

типов и размеров. Объединив результаты предыдущих археологических исследований, была предпринята попытка изучить возраст, атрибуты культурных реликвий, форму поселения и иерархию двух памятников.

**Abstract**

The Samarkand Basin, located at the western end of the Western Tianshan Mountains, is surrounded by lush water and grass. Since the Bronze Age, many nomadic peoples, such as the Sezhong, Sarmatians, Da Yuezhi, and Shuhuang, have been active and pastoral here. From April to May 2014, a joint archaeological team composed of the Silk Road Cultural Relics Conservation and Archeology Research Center of Northwest University in China and the Institute of Archeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan conducted an archaeological survey of the ancient nomadic remains on the southern edge of the Samarkand Basin. Two large-scale nomadic settlement sites in Sazagan and Znak were confirmed and investigated, and a large number of tombs, residences, roads and other remains of different periods, types and sizes were discovered. Combining previous archaeological research results, an attempt was made to explore the age, cultural relic attributes, settlement form and hierarchy of the two sites.

**Kalit soʻzlar:** Sazagʻon, Zinak, chorvadorlar, turar-joy.

**Ключевые слова:** Сазаган; Зинак; кочевник; поселение.

**Key words:** Sazagan; Zinak; nomadic; settlement

**I. UMUMIY MA'LUMOTLAR**

2014-yil 10-apreldan 21-mayga qadar Xitoyning Shimoli-gʻarbiy universitetining Buyuk Ipak yoʻli Madaniy merosni muhofaza qilish va arxeologik tadqiqot markazi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti bilan hamkorlikda tuzilgan arxeologiya guruhi (quyida qisqacha tanishtiriladi: Oʻzbek-Xitoy arxeologik guruhi) Oʻzbekistonning janubiy tomonidagi gʻarbiy Tianshanning gʻarbiy tomonida arxeologik qidiruv tadqiqot ishlarini olib bordi. Ushbu arxeologik qidiruv-tadqiqot ishlari Samarqandning janubiy tomonida gʻarbiy Tianshanning shimoliy yonbagʻirlarida amalga oshirildi (1-rasm). Qidiruv-tadqiqot ishimizning asosini Sazagʻon va Zinak kabi ikki qadimgi chorvadorning turar-joy yodgorligilari tashkil etadi, turli tipdagi turar-joy qoldiqlari va qabrlar aniqlandi, bir qancha yangiliklarga erishildi. Asosiy erishilgan natijalar quyidagicha umumlashtirildi:

Samarqand vohasi Oʻzbekistonning janubi-sharqiy tomoni, shimoliy tomonida gʻarbiy Tianshan togʻ tizmasining Nurota togʻi, Turkiston togʻi, Janubiy tomonida Pomir-Oloy togʻ tizmasining Zarafshon togʻlari bilan oʻralgan. Sharqdan gʻarbga choʻzilgan tor va uzun voha hisoblanadi. Vohaning sharqdan gʻarbga uzunligi taxminan 200000 metr, shimoldan janubga kengligi 10000-60000 metr, umumiy relyefi sharqda baland, gʻarbda past. Pomir togʻlaridan boshlangan Zarafshon daryosi Tojikistonning Panjikent vodiysidan oqib oʻtadi. Sharqdan gʻarbga oqib Samarqand vohasiga kirgandan keyin kanallarga tarqagan va butun vohaning dehqonchilik taraqqiyotining asosini tashkil qilgan suv manbasiga aylangan.

Samarqand vohasi tipik kontinental iqlimga ega, Oʻrtayer dengizi iqlimiga oʻxshash boʻlib, yogʻingarchilik suvlari asosan kuz, qish va bahor fasllarida yigʻiladi, yoz faslida yogʻin miqdori biroz oz (2-rasm). Yogʻingarchilikning taqsimlanishiga relyef taʼsir qiladi. Umuman olganda, yillik yogʻin miqdori balandlikka qarab ortib boradi, mos ravishda oʻsimliklar ham vertikal tarzda tarqalish xususiyatini koʻrsatadi.

Samarqand vohasining oʻrta qismi tekis boʻlib, dengiz sathidan balandligi 280-1000 metr, dengiz sathidan balandlik past boʻlgan hudud va togʻ yonbagʻirlari hududlari uchun yillik havo harorati 15°C, yillik yogʻin miqdori 100-540 mm, asosiy oʻsimliklari choʻl butalari (yantoqlar) va qurgʻoqchilikka moslashgan yaylov oʻsimliklaridir. XX asrning 70-yillarida sovet olimlari Panjikent vodiysida Sarazm yodgorligini aniqlashdi, koʻp yillik qazishma materiallari shuni koʻrsatadiki, Zarafshon daryosining oʻrta oqimlarida miloddan avvalgi 2000-yillikdan boshlab dehqonchilik iqtisodiyoti boshlangan[1]. Miloddan avvalgi 1500-yillar, bronza davrining soʻngiga borib Andronova-Tozabogʻyob madaniyati Samarqand vohasida paydo boʻldi. Ushbu madaniyat sohiblari asosan dehqonchilik bilan shugʻullanishadi, bir vaqtning oʻzida bir qismi chorvachilik bilan ham shugʻullanishadi[2]. Ushbu ilk davr saqlanmalari odatda, yer yuzasidan bir necha metr pastda togʻdan yuvilib kelgan tuproq uyumi ostida saqlanadi, ularni aniqlash qiyin. Samarqand vohasi dehqonchiligining tez rivojlangan davri Ahmoniyalar podsholigi hisoblanib, mahalli aholi Zarafshon daryosining shimol va janub tomonlarida Dargʻom va Bulungʻur kabi kanallarini qazishdi, shu bilan birga, sugʻorma dehqonchilikka asoslangan tizim shakllandi, katta hududdagi yerlar dehqonchilik uchun oʻzlashtirildi [3].


## TARIX

Samarqand vohasining atrofidagi tog' etaklari subalpik tog'laridir, dengiz sathidan balandligi 1000-2600 metr, yillik harorat 12°C, yillik yog'in miqdori 400 mm dan ortiq, asosiy o'simliklar yaylov o'simliklaridir. Voha tog'larda qor erishi natijasida hosil bo'lgan suv resurslariga boy, Yaylov keng va chorvachilikni rivojlantirishga qulay. Bu hududda ham Andronova-Tozabog'yob madaniyati topilmalari ham aniqlangan, bu madaniyat salqanmalari ham qalin bo'lgan tog'dan surilib kelgan tuproq uyumi ostidagi qatlamlarda ostida. Samarqand vohasi atroflaridagi tog' yon bag'irlarida qidiruv ishlarida yer yuzasi uchragan topilmalarning asosiy qismi temir davri chorvador xalqlarga tegishli saqlanmalar hisoblanadi, hajmiga ko'ra katta kichik tipdagi tuproq va tosh uyumidan qurilgan qabrlardir.



1-rasm. Samarqand vohasining relyefi va yodgorliklarning joylashuv xaritasi  
1. Sazag'on yodgorligi, 2. Zinak yodgorligi

XX asrning 60-yillarning boshlarida, arxeolog olimlar Zarafshon daryosining o'rta oqimlarida tizimli tarzda arxeologik qidiruv va qazuv tadqiqot ishlari boshlandi, tizimli arxeologik qidiruv va qazuv ishlari davomida chorvadorlarga tegishli qabrlar aniqlandi. Eng ko'pi Samarqand vohasining janubiy tomonidagi Agalik qabristoni[4], Mironkul qabristoni[5], Sazagan qabristoni va Samarqand vohasining shimoliy tomonidagi Oqjartepa qabristoni[6].



2-rasm. Samarqand vohasining yog'in suvlarining taqsimoti diagrammasi  
(Dengiz sathidan balandlik 725 metr)

Bu qabrlarning ko'pchiligi davri miloddan avvalgi IV va milodiy IV asrlar orasiga tegishli. Olimlarning fikricha ular saklar, sarmatlar, yueji, eftalitlar kabi manbalarda eslatilgan xalqlar bilan bog'liq.

1999-yildan boshlab, Italiyaning Bolonya universiteti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi arxeologiya instituti bilan hamkorlikdagi guruh (quyida nomlari keltiriladi: Italiya-O'zbekiston guruhi) Samarqand vohasining o'rta qismi, janubiy tomonlaridagi turli davrga oid qadimgi yodgorliklarda katta maydonlarda arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini olib borishdi. Qidiruv ishlarida sun'iy yo'ldosh tasvirlari tahlili, yer yuzasidagi topilmalarni yig'ish, topilmalarning teodolit yordamida joylashuvini belgilash, RTK xaritalash, 3D modelini tayyorlash va boshqa metodlardan foydalanildi. Yodgorlikning shakli xususiyati, o'lchami, saqlanish holati bo'yicha batafsil qayd etib borildi. Shu bilan birga, yodgorliklarning morfologik xususiyatlarini kuzatish va ilmiy tahlillarni birlashtirib, ularning davriga aniqlik kiritildi.

2012-yil holatiga ko'ra, Italiya-O'zbekiston arxeologik guruhi 1400 ga yaqin qadimiyat belgilari izlarini o'rgandi, Arxeologik guruh o'rganilgan yodgorliklarni sun'iy tepaliklar, qabrlar va past uyumlar, yodgorlikning tashqi hududlari, qadimgi sun'iy suv kanallari va boshqalar. Tadqiqot natijasi shuni ifodalaydiki, yer yuzasida kuzatilgan topilmalarning katta qismi miloddan avvalgi VI-milodiy VIII asrlarga tegishli, ya'ni Ahmoniyalar davridan arablar bosqini davrigacha[7].

Oldingi ishlar asosida, 2014-yil aprel-may oylarida O'zbek-Xitoy arxeologik guruhi Samarqand vohasining janubiy chekkasida to'plangan, ko'p sonli va yodgorlik turlariga boy bo'lgan ikki qadimiy ko'chmanchi aholi manzilgohi – Sazagan va Zinakda asosiy arxeologik tadqiqotlar o'tkazdi.

## II. SAZAG'ON


Sazag'on yodgorligi Samarqand shahrining janubi-g'arbiy tomonida 20 ming metr masofadagi Sazag'on qishlog'ining janubi, sharq va g'arb tomonidagi tog' oldi hududlarda joylashgan. XX asrning 60-yillarida sovet arxeolog olimlari yodgorlik hududida qadimgi ko'chmanchi xalqlarga tegishli qabrlarda dastlabki qidiruv-tekshiruv va kichik hududda qazuv ishlarini olib bordilar. 2002-yildan O'zbek-Italiyan arxeologik guruhi yodgorlikda arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini boshlashdi. 2014-yildan O'zbek-Xitoy arxeologik guruhi Sazag'on yodgorligining beshta hududida arxeologik qidiruv ishlari olib borildi (3-rasm). 1-hudud Sazag'on qishlog'ining sharqiy tomonidagi tog' tepaligidagi joylashgan bo'lib, yuza qismi o't bilan qoplangan katta va o'rta tipdagi qabrlar to'plangan hudud. 2-hudud Sazag'on qishlog'ining janubidagi tog'oldi yerlarida joylashgan, katta va o'rta tipdagi qabrlar tarqalgan (4-rasm). 2003-yildan O'zbek-Italiyan arxeologik guruhi ushbu hududda arxeologik qazishma ishlarini olib borishdi va miloddan avvalgi IV –II asrlarga oid antik davr qal'asi ustida miloddan avvalgi I – milodiy I asrlardagi ko'chmanchi chorvador xalqlarning qabrlarini aniqlandi[8]. 3-hudud Sazag'on qishlog'ining janubiy tomonidagi daryo vohasining g'arbiy qirg'og'idagi platformada joylashgan. 4-hudud Sazag'on qishlog'ining shimoliy tomonidagi tekislikdagi maydonda joylashgan, ushbu hududning katta qismi mahalliy aholi tomonidan qurilgan uylar egallagan. Hududdagi qadimiyat izlari deyarli buzib yuborilgan, qidiruv ishlari davomida faqatgina bir qancha kichik tipdagi qabrlar aniqlandi. 5-hududda ham to'liq qidiruv ishlari olib borildi.

### 1) 1-hudud.

Umumiy aniqlangan qabrlar soni 23 ta. Ular ikki tipga aylana tosh uyumli qabrlar va aylana tuproq uyumli qabrlarga ajratildi. Aylana tosh uyumli qabrlar 5 ta, ularning ichida uyumning diametri 11-20 metr bo'lgan katta tipdagi qabr 1 ta, uyumning diametri 5 metr bo'lgan kichik tipdagi qabrlar soni 4 ta. Aylana shakldagi tuproq uyumli qabrlar soni 18 ta bo'lib, ularning ichida diametri 20 metr bo'lgan eng katta tipdagi qabrlar soni 4 ta, katta tipdagi qabrlar soni 7 ta, Uyumning diametri 6-10 metr bo'lgan o'rta tipdagi qabrlar soni 2 ta, kichik tipdagi qabrlar soni 5 ta. Eng katta tipdagi va katta tipdagi qabrlarning yuqori tomoni va atroflarida o'g'irlanganlik belgilar mavjud. Mahalliy aholi tomonidan turar-joy qurilishi uchun tuproq olinishi bir nechta qabrlarning turli darajada buzilishiga sabab bo'lgan. Kichik tipdagi qabrlarning saqlanish holati biroz yaxshi. Qabrlarning tarqalish holatiga qaraydigan bo'lsak, 1-raqamli, 10-raqamli, 11-raqamli, 12-raqamli, 13-raqamli kabi eng katta va katta tipdagi tuproq uyumli qabrlar janubi-sharq shimoli-g'arbiy yo'nalishda zanjir bo'lib tarqalgan; 15-raqamli, 16-raqamli, 17-raqamli, 18-raqamli, 21-raqamli, 22-raqamli katta va o'rta tipdagi tuproq uyumli qabrlar sharq g'arb yo'nalishda zanjir bo'lib tarqalgan;

## TARIX

kichik tipdagi tuproq uyumli qabrlar katta va o'rta tipdagi qabrlarning atroflarida joylashgan. 14-raqamli qabrdan tashqari, qolgan 4 ta kichik tipdagi tosh uyumli qabrlar asosan 1-raqamli qabrning g'arbiy, janubiy tomonida joylashgan (5-rasm). Tipik qabrlarga misollar.



3-rasm. Sazag'on yodgorligining joylashuv xaritasi



4-rasm. Sazag'on yodgorligining 1-hududining ko'rinishi, janub shimol yo'nalishda  
1. Qabrlar.

(1) Aylana shakldagi tuproq uyumli qabrlar.

1-raqamli qabr, eng katta tipdagi aylana shakldagi tuproq uyumli qabr. G'arbda Sazag'on qishlog'idan 440 metr masofada, shimolda M39 yo'lidan 76 metr masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4528.464$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3215.488$ , dengiz sathidan balandligi 790 metr. Tuproq uyumining saqlanish holati biroz to'liq, diametri 54 metr, balandligi 10 metr bo'lib, sariq tuproqdan qurilgan, yuza qismi o'simliklar bilan qoplangan. Uyumning atroflarida kengligi 4.5 metr, chuqurligi 0.3 metr bo'lgan aylana handak bor. Uyumning yuqori tomonining uchta joyida o'g'irlik chuqurlari mavjud (6-rasm).




**5-rasm. Sazag'on yodgorligining 1-hududidagi yodgorliklarning joylashuv xaritasi**

11-raqamli qabr, eng katta tipdagi aylana shakldagi tuproq uyumli qabr. Sazag'on qishlog'ining shimoli-sharqiy burchagidagi mahalliy aholi xo'jaligi orqa tomonida, janubda M39 yo'lidan 355 metr masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4511.507$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3228,715$ , dengiz sathidan balandligi 769 metr. Uyumning shimoliy, g'arbiy, janubiy uch tomoni mahalliy aholi tomonidan tuproq olinib buzilgan, diametrining saqlangan uzunligi 37 metr, balandligi 3.7 metr, o'lchamlari saqlangan qismlariga asosan hisoblangan. Uyumning asl diametri 40 metr tarafida (7-rasm). Tuproq uyumi atrofida 1 ta odam bosh suyagi (tartib raqami: USS1:2) va 1 ta sopol parchasi (tartib raqami: USS1:3) aniqlandi.

15-raqamli qabr, katta tipdagi aylana shaklga ega tuproq uyumli qabr. Sazag'on qishlog'ining g'arbiy tomonidagi tog' tepaligidagi, M39 yo'lidan 547 metr masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4524.217$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3159,335$ , dengiz sathidan balandligi 790 metr. Diametri 10 metr, balandligi 0.5 metr bo'lib, sariq tuprog'dan qurilgan, yuza qismi o'tlar bilan qoplangan.

9-raqamli qabr, kichik tipdagi aylana shaklga ega tuproq uyumli qabr. Janubda 1-raqamli qabrdan 22 metr masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4527.58$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3216,638$ , dengiz sathidan balandligi 782 metr. Tuproq uyumi yaxshi saqlangan. Diametri 4 metr, balandligi 0.2 metr bo'lib, sariq turog'dan qurilgan, yuza qismi o'tlar bilan qoplangan (8-rasm).





**6-rasm. Sazag'on yodgorligining 1-hududidagi 1-raqamli qabr, janubi-sharqdan shimoli-g'arb yo'nalishda**


(2) Aylana tipdagi tosh uyumli qabr.

14-raqamli qabr, katta tipdagi aylana shaklga ega tosh uyumli qabr. Sazag'on qishlog'ining sharqiy tomonida, 15-raqamli qabrdan 71 metr sharqiy masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4521.165$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3258,638$ , dengiz sathidan balandligi 789 metr. Uyumning saqlanish holati biroz yaxshi, diametri 0.5 metr, balandligi 1 metr bo'lib, tosh va sariq tuproq aralashmasida qurilgan, yuqori qismi buzilgan. Uyumning atrofida aylana handak bor, uning kengligi 0.5 metr, chuqurligi 0.2 metr (9-rasm).


8-qabr, kichik tipdagi aylana shaklga ega tosh uyumli qabr. Janubi-sharqiy yo'nalishda 1-raqamli qabrdan 19 metr masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4526.82$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3216,373$ , dengiz sathidan balandligi 782 metr. Uyum yaxshi saqlangan. Diametri 4.5 metr, balandligi 0.3 metr bo'lib, tosh va sariq tuproq aralashmasidan qurilgan, yuza qismi o'tlar bilan qoplangan.

2. Topilmalar. Qidiruv ishlari davomida umumiy 3 ta topilma to'plandi, ularning 2 tasi sopol bo'lagi, 1 tasi suyak.

USS1:1, loydan yasalgan jigarrang sopol, idishning qorin qismi bo'lagi, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4549.108$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}323,031$ , dengiz sathidan balandligi 780 metr. Uzunligi 4 sm, kengligi 2.3 sm, qalinligi 0.4 sm bo'lib charxda yasalgan (10-rasm, 1).



**7-rasm. Sazag'on yodgorligining 1-hududidagi 11-raqamli qabr, janubi-g'arbdan shimoli-sharq yo'nalishda**



**8-rasm. Sazag'on yodgorligining 1-hududidagi 9-raqamli qabr, janubi-sharq shimoli-g'arb yo'nalishda**



**9-rasm. Sazag'on yodgorligining 1-hududidagi 14-raqamli qabr, janubi-g'arb shimoli-sharq yo'nalishda**

USS1:2. Odam bosh suyagining bo'lagi. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}45'11.607$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}32'28.844$ , dengiz sathidan balandligi 767 metr. Uzunligi 4.3 sm, kengligi 4.3 sm, qalinligi 0.3 sm. Tashqi yuzasidagi ikki yo'lining kengligi 0.2 sm, o'yilgan tartibsiz chiziqlari mavjud (10-rasm, 2).

USS1:3. Qum qo'shilib mustahkamlangan jigarrang sopol, idishning qorin qismi. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}45'10.779$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}32'27.995$ , dengiz sathidan balandligi 768 metr. Uzunligi 4.4 sm, kengligi 3.9 sm, qalinligi 0.9 sm, charxda yasalgan sopol idish (10-rasm, 3).



1



2



3

**10-rasm. Sazag'on 1-hududidan to'plangan topilmalar. 1. sopol bo'lagi (USS1:1), 2. Odamning bosh suyagi bo'lagi (USS1:2) 3. Sopol bo'lagi (USS1:3).**

**2) 3-hudud.**

Sazag'on qishlog'ining janubida tog' vohasidagi Sazag'on daryosining sharqiy tomonidagi platformada joylashgan, janubiy tomoni mahalliy aholining turar-joylari tomonidan buzilgan. G'arb tomonidagi tepalikda zamonaviy davr musulmon qabristoni bor. Yodgorlik hududi o'zlashtirilmagan, yuzasi o'simliklar bilan qoplangan (11-rasm). Yodgorlikning shimoldan janubga uzunligi 110 metr, sharqdan g'arbgacha kengligi 53 metr. Arxeologik qidiruv ishlari davomida 8 ta turar-joy qoldiqlari, 39 ta qabrlar aniqlandi (12-rasm). Turar-joy qoldiqlari tosh bilan o'ralgan, yuza qismi to'rtburchak shaklda, to'rtala tomoni devorlari daryo toshlari va loy aralashmasidan tiklangan. Qabrlarning hammasi tosh uyumli kichik tipdagi qabrlardir, ular umumiy 5 ta tipga ajratildi: to'rtburchak shakldagi tosh bilan o'ralgan qabrlar (9 ta), aylana shakldagi tosh bilan

o'ralgan qabr (1 ta), to'rtburchak shakldagi tosh uyumga ega qabrlar (5 ta), oval shakldagi tosh uyumga ega qabrlar (6 ta), aylana shakldagi tosh uyumga ega qabrlar (18 ta). Aniqlangan 4 guruh qabrlari tosh qo'rg'on poydevorini buzgan: 14-raqamli qabr 2-raqamli toshqo'rg'on poydevorini, 17-raqamli qabr 3-raqamli toshqo'rg'on poydevorini, 19-raqamli, 20-raqamli qabrlar 4-raqamli toshqo'rg'on poydevorini buzganligi kuzatildi. Quyida tipik saqlanmalarga misollar keltirilgan.

### **1. Tosh qo'rg'on poydevori**

4-raqamli tosh qo'rg'on poydevori yodgorlikning janubi-g'arbiy tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 66°446.08, shimoliy kenglik 39°3125,991, dengiz sathidan balandligi 790 metr. Yuzasi biroz to'rtburchak shaklda bo'lib, shimoldan janubga uzunligi 5.6 metr, sharqdan g'arbga kengligi 4.2 metr. Devor ikki qavat qilib daryo toshlari va loy aralashmasidan qurilgan, balandligi 0.2 metr, devorning kengligi 0.35 metr. Toshqo'rg'on poydevorining janubiy tomoni 19-raqamli qabr tomonidan buzilgan, shimoliy tomoni 20-qabr tomonidan buzilgan (13-rasm).

5-raqamli toshqo'rg'on yodgorligi yodgorlikning markaziy qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 66°44.6, shimoliy kenglik 39°3126,96, dengiz sathidan balandligi 784 metr. Yuzasi biroz to'rtburchak shaklda bo'lib, shimoldan janubga uzunligi 13.7 metr, sharqdan g'arbga kengligi 21 metr. Devor ikki qavatli qilib daryo toshlari va loy aralashmasidan qurilgan, yer yuzasidan yuqori qismigacha balandligi 0.2-0.3 metr, devorning kengligi 0.4 metr. Markaz qismida bitta shimol janub yo'nalishda devor qismi mavjud. Devor qismi ham bir qavat daryo toshlaridan qurilgan, kengligi 0.2 metr. Ajratilgan devorning markaz qismida eshik yo'lagi saqlangan, eshik yo'lagining kengligi 1 metr. Tosh qo'rg'onning markaziy qismida chuqurligi 0.4 metr bo'lgan botiq hosil qilgan (14-rasm).

7-raqamli tosh qo'rg'on yodgorligi yodgorlikning shimoliy tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 66°446.187, shimoliy kenglik 39°3128,084, dengiz sathidan balandligi 785 metr. Toshqo'rg'onning g'arbiy tomoni shimol janub yo'nalishda qishloqning yo'li tomonidan buzilgan. Yuzasi biroz to'rtburchak shaklda bo'lib, shimoldan janubga uzunligi 17.8 metr, sharqdan g'arbga kengligi 14.3 metr, balandligi 1.5 metr, yuqori qismi biroz tekis (15-rasm). Devor daryo toshlari va loy aralashmasidan qurilgan, devorning katta qismini mahalli aholi tomonidan olib ketilib, uy qurilishida ishlatilgan.




**11-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududining ko'rinishi, shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishda**




12-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi qadimiy saqlanmalarning joylashuv xaritasi



13-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi 4-raqamli tosh qo'rg'on , shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishda.



**14-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi 4-raqamli tosh qo'rg'on, sharq g'arb yo'nalishda**



**15-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi 7-raqamli tosh qo'rg'on, sharq g'arb yo'nalishda**

## TARIX

**2. Qabrlar**

(1) To'rtburchak shakldagi tosh aylana shaklli qabrlar.

4-raqamli kichik tipdagi qabr yodgorlikning janubiy qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}447.276$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3125,231$ , dengiz sathidan balandligi 792 metr. Uyum daryo toshlari bilan o'ralib to'rtburchak shaklni hosil qilgan tosh halqa, o'rta qismi tuproq bilan to'ldirilgan. Tosh halqaning shimoldan janubga uzunligi 2.4 metr, sharqdan g'arbga kengligi 1.5 metr, balandligi 0.15, yuzasi biroz tekis (16-rasm).

(2) Aylana shakldagi tosh halqa.

34-raqamli kichik tipdagi qabr yodgorlikning markazining janubiy tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}447.758$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3126,272$ , dengiz sathidan balandligi 785 metr. Uyumning yuza qismi aylana shaklda bo'lib, atrofi daryo toshlari bilan o'ralib aylana shaklni hosil qilgan. Diametri 2.1 metr, balandligi 0.2 metr, yuza qismi tekis. (17-rasm).

(3) To'rtburchak shakldagi tosh uyumi.


5-raqamli kichik tipdagi qabr yodgorlikning janubi-sharqiy tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}447.366$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3125,805$ , dengiz sathidan balandligi 791 metr. Uyumning atrofida daryo toshlari bilan o'ralib to'rtburchak shaklni hosil qilgan. Uyumning shimoldan janubga uzunligi 3.1 metr, sharqdan g'arbga kengligi 2.2 metr, balandligi 0.1 metr, yuza qismi biroz tekis bo'lib, markazi biroz ko'tarilgan.

(4) Aylana shakldagi tosh uyumiga ega qabr.

19-raqamli kichik tipdagi qabr yodgorlikning janubi-g'arbiy tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}446.331$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3125,659$ , dengiz sathidan balandligi 787 metr. Uyumning yuzasidan aylana shakli ko'rinadi, daryo toshlaridan qurilgan. Diametri 1.3 metr, balandligi 0.15 metr, markaz qismi biroz ko'tarilgan (18-rasm).

(5) Oval shakldagi tosh uyumli qabr.

18-raqamli kichik tipdagi qabr yodgorlikning janubi-g'arbiy tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}446.398$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3125,659$ , dengiz sathidan balandligi 785 metr. Uyumning yuza qismidan oval shaklida ko'rinadi va daryo toshlaridan qurilgan. Shimoldan janubga uzunligi 2.4 metr, sharqdan g'arbga kengligi 1.3 metr, balandligi 0.17 metr, yuza qismi biroz tekis, markaziy qismi biroz ko'tarilgan.



16-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi 4-qabr, shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishda.

### 3. Topilmalar.

5-raqamli toshqo'rg'onning shimoli-sharq tomonidan umumiy 3 bo'lak sopol parchalari aniqlandi.

USS3:1, zij tarkibida qum mavjud bo'lgan qizil sopol, qozon shakldagi idishning qorin qismi. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}446.994$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3126,569$ , dengiz sathidan balandligi 785 metr. Uzunligi 6.4 sm, kengligi 4.7 sm, qalinligi 0.6 sm, charxda yasalgan (19-rasm).

USS3:2, loydan yasalgan qizil sopol, tuvak shaklidagi idishning qorin qismi bo'lagi. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}446.995$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3126,570$ , dengiz sathidan balandligi 785 metr. Uzunligi 4.5 sm, kengligi 3.9 sm, qalinligi 0.5 sm, charxda yasalgan (19-rasm, 2).

USS3:3, tarkibi zij, qum aralash jigarrang sopol, tuvak shaklidagi idishning qorin qismi bo'lagi. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}446.993$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3126,568$ , dengiz sathidan balandligi 785 metr. Uzunligi 3.7 sm, kengligi 2.5 sm, qalinligi 0.5 sm, yuza qismida uch qator parallel chizilgan bezakka ega charxda yasalgan idish (19-rasm, 3).

### 3) 5-hudud.

Ushbu hudud Sazag'on qishlog'ining tog'oldi tepaligida joylashgan, yodgorlik hudud o'zlashtirilmagan, yuza qismi o'simliklar bilan qoplangan. Yodgorlikning shimoldan janubga uzunligi 1.2 km, sharqdan g'arbga kengligi 0.7 km ni tashkil etadi. Qidiruv ishlari davomida 1 ta toshqo'rg'on yodgorligi, 1 ta sun'iy platforma, 353 ta qabr aniqlandi (20-rasm). Shuningdek, to'rtburchak shaklda o'rab olingan qabrlar (7 ta), to'rtburchak shaklli uyumga ega qabrlar (8 ta), aylana shaklli uyumga ega qabrlar (338 ta) kabi uch ta turi aniqlandi. Ularning ichida to'rtburchak shaklda o'rab olingan qabrlar va to'rtburchak shaklli uyumga ega qabrlar kichik tipdagi qabrlar hisoblanadi.




17-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi 34-qabr, shimoldan janub yo'nalishda





18-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidagi 19-raqamli qabr



19-rasm. Sazag'on yodgorligining 3-hududidan yig'ib olingan sopol parchalari  
1. USS3:1 2. USS3:2 3. USS3:3

Aylana shakldagi uyumga ega qabrlar tog' qiyaligida zanjir holatida yoyilgan. Maydonning katta-kichikligiga ko'ra, ikkita kichik tipga bo'ldi: 62 ta o'rta tipdagi qabrlar, 276 ta kichik tipdagi qabrlar. Tipik shakllariga namunalari.

### 1. Toshqo'rg'on

1-raqamli toshqo'rg'on yodgorligi yodgorlikning markazi va janub tomonida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}432.402$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3141,477$ , dengiz sathidan balandligi 794 metr. Yuza qismi to'rtburchak shakliga yaqin, shimoldan janubga uzunligi 4.0 m, sharqdan g'arbga kengligi 3.3 m. Sharqiy devor va shimoliy devor saqlanishi biroz yaxshi, devor kichik toshlar va loy aralashmasidan qurilgan bo'lib, devorning kengligi 1.1 metr, balandligi 0.2 metr.

### 2. Sun'iy platforma

1-raqamli sun'iy platforma yodgorlikning markaziy va janubiy qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}431.378$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3142,168$ , dengiz sathidan balandligi 799 metr. Shimoldan janubga uzunligi 1.4 metr, sharqdan g'arbga kengligi 4 metr bo'lib, janub tomonini tog'ning yuvib kelingan tuprog'i qoplab qolgan. Platformaning yuza

qismi tekis, shimoliy tomonidagi qirg'og'i kichik tosh va qum tuproq aralashmasidan qurilgan, mustahkamlash uchun toshlar terib chiqilgan, terilgan toshlarning kengligi 1.2 metr, balandligi 0.3 metr.

### 3. Qabrlar

(1) Tosh bilan o'ralib to'rtburchak shakl hosil qilgan 111-raqamli qabr, ushbu qabr kichik tipdagi qabr bo'lib, yodgorlikning janubiy qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}435.479$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3138,588$ , dengiz sathidan balandligi 804 metr. Uyum o'rta qismi tuproq bilan to'ldirilgan bo'lib, atrofi ikki qator toshlar bilan o'ralib to'rtburchak shaklini hosil qilgan. Tosh o'ramining shimoldan janubga uzunligi 1.5 metr, sharqdan g'arbga kengligi 1 metr, balandligi 0.1 metr, yuza qismi biroz tekis.

(2) To'rtburchak shakldagi tosh uyumli qabr.

162-raqamli kichik tipdagi qabr, ushbu qabr yodgorlikning markaziy va janubiy qismida joylashgan (21-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}431.202$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3143,298$ , dengiz sathidan balandligi 799 metr. Uyum faqat toshlarda qurilgan bo'lib, shimoldan janubga uzunligi 1.2 metr, sharqdan g'arbga kengligi 0.7 metr, balandligi 0.1 metr, yuza qismi biroz tekis.

(3) Aylana shaklidagi tosh uyumiga ega qabrlar.

O'rta tipdagi 260-qabr yodgorlikning markaz va janub qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4255.733$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3155,817$ , dengiz sathidan balandligi 775 metr. Uyumning yuza qismi aylana shakliga ega bo'lib, daryo toshlari bilan qurilgan. Diametri 6 metr, balandligi 0.5 metr, markaz qismi bo'rtib chiqqan.

O'rta tipdagi 44-raqamli qabr yodgorlikning sharqiy qismida joylashgan (22-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}438.851$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3154,239$ , dengiz sathidan balandligi 782 metr. Uyumning yuza qismi aylana shakliga ega bo'lib, daryo toshlari bilan qurilgan. Uning diametri 7.4 metr, balandligi 0.3 metr, janubiy yarim qismi mahalliy aholi tomonidan buzilgan.

Kichik tipdagi 45-raqamli qabr yodgorlikning g'arbiy qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}437.193$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3153,776$ , dengiz sathidan balandligi 784 metr. Uyumning yuza qismi aylana shakliga ega bo'lib, daryo toshlari bilan qurilgan. Uning diametri 3.4 metr, balandligi 0.2 metr, janubiy yarim qismi mahalliy aholi tomonidan buzilgan.

Kichik tipdagi 80-raqamli qabr yodgorlikning markaziy qismida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}432.517$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3146,17$ , dengiz sathidan balandligi 791 metr. Uyumning yuza qismi aylana shakliga ega bo'lib, daryo toshlari bilan qurilgan. Uning diametri 1.4 metr, balandligi 0.3 metr, markaz qismi bo'rtib chiqqan.

**4. Topilmalar.** Yodgorlik hududining ichki qismidan 56 bo'lak sopol parchalari yig'ildi, ularning davri miloddan avvalgi IV-milodiy 10 asrlarga oid.

USS5:56, loydan yasalgan jigarrang sopol, tuvak shaklidagi idishning tag qismi bo'lagi (23-rasm, 1). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}433.282$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3134,718$ , dengiz sathidan balandligi 809 metr. Biroz tekis, diametri 25 sm, devor qalinligi 0.9 sm, tag qismi qalinligi 0.7 sm.

USS5:1, loydan yasalgan jigarrang sopol, idishning tag qismi bo'lagi (23-rasm, 2). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}434.486$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3139,218$ , dengiz sathidan balandligi 805 metr. Tag qismi tekis bo'lib, uning diametri 22 sm, devor qalinligi 1.8 sm, tag qismi qalinligi 1.4 sm.

USS5:33, loydan yasalgan jigarrang sopol, idishning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 3). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4257.857$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3146,013$ , dengiz sathidan balandligi 787 metr. Lab qismi biroz ichkariga qayrilgan, yo'g'on, uning diametri 7 sm, lab qismi qalinligi 1.2 sm, devor qismi qalinligi 0.4 sm. Idishning yuzasida sariq angobga ega.

USS5:32, loydan yasalgan jigarrang sopol, idishning tag qismi bo'lagi (23-rasm, 4). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4257.857$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3146,013$ , dengiz sathidan balandligi 787 metr. tag qismi tekis bo'lib, uning diametri 1.4 sm, devor qismi qalinligi


## TARIX

1.1 sm, asos qismi qalinligi 1.4 sm.

USS5:34, loydan yasalgan qizil rangli sopol, idishning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 5). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4257.857$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3146,013$ , dengiz sathidan balandligi 787 metr. lab qismi aylana shaklini olgan bo'lib, uning diametri 8 sm, devor qismi qalinligi 1 sm.

USS5:40, tarkibi zich qum aralash qizil sopol, idishning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 6). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4254.739$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3144,471$ , dengiz sathidan balandligi 785 metr. lab qismi aylana shaklini olgan bo'lib, uning devori qalinligi 0.6-1.2 sm.

USS5:54, loydan yasalgan qizil sopol, tuvak shakliga ega idishning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 7). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4252.748$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3149,093$ , dengiz sathidan balandligi 780 metr. lab qismi biroz orqaga qayrilgan bo'lib, uning labining qalinligi 2.4 sm, diametri 33 sm, devori qalinligi 1.4 sm.



20-rasm. Sazag'on yodgorligining 5-hududi saqlanmalarini joylashuv xaritasi



21-rasm. Sazag'on yodgorligining 5-hududidagi 162-qabr, shimol janub yo'nalishda



22-rasm. Sazag'on yodgorligining 5-hududidagi 44-raqamli qabr, shimoli-sharq janubi g'arb yo'nalishda

## TARIX

USS5:45, tarkibi zich qum aralash kulrang sopol, tuvak shakliga ega idishning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 8). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4252.748$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3149,093$ , dengiz sathidan balandligi 780 metr. lab qismi biroz orqaga qayrilgan, lab qismi diametri 22 sm, kengligi 1.9 sm bo'lib, uning devori qalinligi 0.8 sm.

USS5:44, loydan yasalgan jigarrang sopol, kosaning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 9). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4252.748$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3149,093$ , dengiz sathidan balandligi 780 metr. lab qismi biroz orqaga qayrilgan bo'lib, uning labining diametri 25 sm, devori qalinligi 0.6 sm.

USS5:24, loydan yasalgan jigarrang sopol, idishning dastasi qismi bo'lagi (23-rasm, 10). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}437.062$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3131,124$ , dengiz sathidan balandligi 791 metr. Vertikal holatdagi dasta bo'lib, uning uzunligi 5.6 sm, kengligi 3-4 sm, diametri 1.8 sm.

USS5:48, tarkibi zij qum aralashgan jigarrang sopol, tuvakning lab qismi bo'lagi (23-rasm, 11). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $66^{\circ}4252.748$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}3149,093$ , dengiz sathidan balandligi 780 metr. Lab qismi buklangan burchak hosil qilgan, lab qismi kengligi 1.4 sm, diametri 1.1 sm, devor qismi qalinligi 0.7 sm.

### III. ZINAK YODGORLIGI HUDUDI

Zinak yodgorligi Zarafshon tog'ining shimoliy yonbag'irlarida, M39 yo'lining tog'oldi, sharqiy tomonida Zinak qishlog'i va Xo'jaduk qishlog'ining janubidagi tog' tepaligida, shimoli-g'arbdan Samarqand shahrining janubi-sharqiy tomonida 20 km masofada joylashgan (24-rasm). Yodgorlik janubi-g'arbiy tomoni Zinak qishlog'i tomonidan egallagan, sharqdan g'arbga uzunligi 2 km, shimoldan janubga kengligi 1.7 km. Janub tomonida Zarafshon tog'ining yil davomida qor turadigan suv manbasiga ega. Yodgorlikning o'rta qismidan keng jarli kesib o'tib, yodgorlikning sharq va g'arb ikki tomonga bo'ladi. Zinak qishlog'ining janubiydagi katta maydondagi tog' tepaligi o'zlashtirilmagan, shuning uchun yodgorlikning bu hududi yaxshi saqlangan, yuza qismi o'simliklar bilan qoplangan. Bu hududda mahalliy aholi hayvonlari boqadi. Xo'jaduk qishlog'ining janubidagi tog' oldi tepaligining katta qismi o'zlashtirilib, dehqonchilik maydoniga aylantirilgan, faqatgina tarqoq holatdagi yodgorlik belgilari saqlanib qolgan.

Ushbu qidiruv tadqiqoti vaqtida umumiy toshqo'rg'onlar soni 2 ta, sun'iy platformalar 85 ta, qadimgi yo'l belgilari 2 ta, qabrlar 320 ta (25-rasm). Toshqo'rg'on yodgorliklar tog'oldi platformalarda qurilgan, yarim chuqur tuzilishga ega bo'lib, yuza qismi to'rtburchak shaklda ko'rinadi.



23-rasm. Sazag'on yodgorligining 5-hududidan to'plangan sopol bo'laklari.



24-rasm. Zinak yodgorligining ko'rinishi, shimoldan janub yo'nalishda

Devori loy bilan aralashtirilib, toshdan qurilgan. Sun'iy platformaning hammasi tog' yonbag'iridagi tepalikda qurilgan. Yuza qismi va atrofida sun'iy ishlov berilganlik belgilari bor. Tadqiqotga ko'ra, platforma qirg'oqlari toshdan foydalanib mustahkamlangan. XX asrning 60-yillarining boshlarida mahalliy aholi tomonidan toshlar olib ketilib turar-joy qurilishiga ishlatilgan, 90-yillarda esa katta hajmdagi toshlar olib ketilgan. Yo'l belgilari sharqiy g'arbiy yo'nalishda yodgorlikning markaziy qismida, tog' tepaligida joylashgan. Yo'lning sun'iy ishlangan qismi tekis bo'lib, uni 2-4 metrni tashkil etadi. Qabrlar asosan ikki tipda bo'lib, aylana shakldagi tosh uyumiga ega qabrlar (315 ta) va to'rtburchak shaklga ega tosh uyumli qabrlar kabilaridan iborat.

## TARIX

Bundan tashqari bitta bronza davrining qabri tog' suvlarini toshishi natijasida buzilgan bo'lib, tashqi tuzilish shakli aniq emas. Aylana shakldagi tosh uyumli qabrlar tog' oldi tepaligida zanjir shaklida yuqoridan quyiga qarab zanjir shaklida tarqalgan, ko'plab qabrlar platforma yuzasidan joylashgan. Tipik saqlanmalarga na'munalar:

**1) Toshqo'rg'on**

1-raqamli toshqo'rg'on yodgorlikning sharqiy tomonida tog' oldi maydonida joylashgan (26-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}318.937$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2254,304$ , dengiz sathidan balandligi 1064 metr. Toshqo'rg'on yuzasi to'rtburchak shakliga yaqin bo'lib, janubi-g'arbiy tomoni mahalli aholi tomoni dehqonchilik uchun o'zlashtirilib buzilgan, faqatgina sharqiy devor, shimoliy devor qismi saqlanib qolgan, devor loy va tosh aralashmasidan qurilgan. Devorning ustki toshlari mahalliy aholi tomonidan ko'chirib ketilgan. Shimoliy devorning saqlangan uzunligi 23 metr, balandligi yer yuzasidan 0.3 metr. Sharqiy devorning saqlangan uzunligi 15 metr, balandligi 0.35 metrni tashkil etadi. Janubiy devorning saqlangan uzunligi 7 metr, balandligi 0.4 metr. Devorning tashqi tomonida bir qator katta toshlardan foydalanilgan, sababi suv va tuproqni ushlab turish bo'lishi kerak. Hozirda faqatgina ikkita tosh saqlanib qolgan. Toshqo'rg'onni to'liq tosh suvi olib kelgan tuproq ostida qolgan, ichki tomoni biroz tekis, yuza qismini o'tlar qoplagan.


2-raqamli toshqo'rg'on yodgorlikning sharqiy tomonidagi tog'oldi hududida, 1-toshqo'rg'ondan 152 metr masofada joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}314.713$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2249,853$ , dengiz sathidan balandligi 1077 metr. Toshqo'rg'on yuzasi to'rtburchak shakliga yaqin bo'lib, yuzasiga mexanik ishlov berish yo'li bilan dehqonchilik uchun o'zlashtirilgan. Devorning yuzasi buzilgan, ayniqsa, shimoli-g'arbiy qismi juda jiddiy buzilgan. Devor loy va tosh aralashmasidan qurilgan bo'lib, saqlangan balandligi 0.15 metr. Shimoliy devorning saqlangan uzunligi 5 metr, sharqiy devorning saqlangan uzunligi 11 metr, janubiy devorning saqlangan uzunligi 14 metr.

**2) Sun'iy platforma**


1-raqamli sun'iy platforma yodgorlikning janubiy tomonida tog' tepaligida joylashgan (27-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}348.278$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2249,444$ , dengiz sathidan balandligi 1077 metr. Platforma tog' relyefiga ko'ra, shimoli-sharqqa qaragan holda qurilgan. Sharqdan shimolga uzunligi 36 metr, shimoldan janubga kengligi 25 metr, janub tomoni tog' suvi olib kelgan tuproq uyumi ostida qolgan. Platformaning markaziy qismini bitta shimol-janub yo'nalishdagi jar buzib o'tgan. Tekshiruvchilar guruhi ariqning sharqiy tomonidagi platforma uyumining kesmasini tozalashdi (28-rasm). Uyumning kesmasi yuqoridan pastga 3 qatlam: 1-qatlam, yuqori qatlam sarg'ish jigarrang qum aralash tuproq, tuproqning zijligi bo'sh bo'lib, qalinligi 17 sm, yuzasini o'tlar bosgan. Ikkinchi qatlam qoramtir jigarrang dag'al qumli tuproq, zijligi biroz bo'sh. Qalinligi 15 sm bo'lib, ikkita sopol parchasi chiqdi. Uchinchi qatlam, tabiiy uyum bo'lib, qoramtir jigarrang mayda qattiq tuproq.

5-raqamli sun'iy platforma yodgorlikning janubiy tomoni tog' tepaligida joylashgan (29-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}355.633$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2251,182$ , dengiz sathidan balandligi 1086 metr. Platforma tog' relyefiga ko'ra, shimolga qaragan tizma ustida qurilgan. Sharqdan g'arbga uzunligi 28 metr, shimoldan janubga kengligi 7 metr, janub tomoni tog' suvlari oqizib kelgan tuproq qatlami ostida qolgan. Platformaning yuza qismi tekis va o'tlar bilan qoplangan.

10-raqamli sun'iy platforma yodgorlikning janubiy tomonida tog' tepaligida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}357.813$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2242,4$ , dengiz sathidan balandligi 1136 metr. Platforma tog' relyefiga ko'ra, shimoli-g'arbga qaragan tizma ustida qurilgan. Sharqdan g'arbga uzunligi 48 metr, shimoldan janubga kengligi 7 metr, janub tomoni tog' suvlari oqizib kelgan tuproq qatlami ostida qolgan. Platformaning yuza qismi tekis va o'tlar bilan qoplangan.



25-rasm. Zinak yodgorligining saqlanmalarining joylashuv xaritasi



26-rasm. Zinak yodgorligidagi 1-raqamli toshqo'rg'on



TARIX



27-rasm. Zinak yodgorligining 1-raqamli platformasi, janubi-g'arbdan shimoli sharq yo'nalishda



28-rasm. Zinak yodgorligining 1-raqamli sun'iy platformasining kesmasi, sharq g'arb yo'nalishda



**29-rasm. Zinak yodgorligining 1-raqamli sun'iy platformasi, shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishda**

25-raqamli sun'iy platforma yodgorlikning shimoli-sharqiy tomonida tog' tepaligida joylashgan (30-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}417.042$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2317,856$ , dengiz sathidan balandligi 972 metr. Platforma ikkita jar o'rtasidagi tekislikka qurilgan, janubi-g'arbdan shimoli-sharqiy yo'nalishda yuzasi uchburchak shaklda ko'rinadi, g'arbdan shimolga uzunligi 60 metr, g'arbdan janubga uzunligi 48 metr, sharqdan janubga uzunligi 66 metr. Platformaning yuza qismi tekis va o'tlar bilan qoplangan.

### **3) Yo'l**

2-raqamli yo'l yodgorlikning markaziy qismida tog' tepaligida joylashgan bo'lib, janubi-g'arbdan shimoli-sharq yo'nalishda (31-rasm). Yo'lga inson tomonidan ishlov berilgan, kengligi 2-4 metr. Janubi-g'arbdan yodgorlik hududiga kirib, janub tomonda delta qismi yuzasidan o'tgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}335.252$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2242,206$ , dengiz sathidan balandligi 1100 metr. Shimoli-sharqdan yodgorlikning sharqiy chekkasigacha cho'zilgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}433.378$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2314,886$ , dengiz sathidan balandligi 990 metr. Yo'lning o'rta qismini jarlik tomonidan buzgan, umumiy uzunligi 1.7 km.



**30-rasm. Zinak yodgorligining 25-sun'iy platformasi, shimoli-sharqdan janubi g'arb yo'nalishda**

#### **4) Qabrlar**

(1) To'rtburchak shaklli tosh uyumli qabr.

242-raqamli kichik tipdagi qabr yodgorlikning markazida tog ' tepaligida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}348.754$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2259,36$ , dengiz sathidan balandligi 1040 metr. Uyum toshlardan qurilgan bo'lib, yuzasidan ko'inishi to'rtburchak shaklda. Shimoldan janubga uzunligi 0.7 metr, balandligi 0.1 metr, yuza qismi biroz past va tekis.

(2) Yumaloq shakldagi tosh uyumli qabrlar.

276-raqamli kichik tipdagi qabr shimoli-sharqiy tomondagi tog' tepaligida joylashgan (32-rasm). Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}49.685$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}23'18,724$ , dengiz sathidan balandligi 983 metr. Uyumning saqlanish holati biroz yaxshi, yuzasidan ko'rinishi aylana shaklda bo'lib, daryo toshlari va tuproq aralashmasidan qurilgan. Diametri 2.2 metr, balandligi 0.25 metr, o'rta qismi bo'rtib chiqqan.

O'rta tipdagi 97-qabr yodgorlikning shimoli-sharqiy tomonida tog' tepaligida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}42'6.826$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}23'23,178$ , dengiz sathidan balandligi 957 metr. Uyum biroz yaxshi saqlangan. Yuzasidan yumaloq shakl ko'rinadi va kichik daryo toshlaridan qurilgan, diametri 11 metr, balandligi 0.4 metr, o'rta qismi bo'rtib chiqqan.

**(3) Boshqalar** 320-raqamli qabr.

Yodgorlikning sharqiy tomonidagi tog' tepaligida joylashgan. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}69.224$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}23'27,936$ , dengiz sathidan balandligi 1017 metr. Qabrning katta qismi yuvilib ketgan, shakli aniq emas. Yuza qismidan odamning 10 suyaklari yig'ib olindi, ularning ichidagi ko'rsatkich barmog'i yuzasida yashil rangli bronzaning zangi mavjud (33-rasm). Qishloqliklar ushbu qabrdan bitta bronza qo'l bilakuzugini topib olishgan, ushbu bilakuzukni ushbu ekspeditsiya guruhiga sovg'a qilib berdi va topilgan joyni ko'rsatdi.

### 5) Topilmalar.


Umumiy to'plangan sopol bo'laklari 71 ta, tosh qurol 2 ta, bronza buyum 1 ta.

#### 1. Sopollar

**USZ:29**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}314.435$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2250.417$ , dengiz sathidan balandligi 1073 metr. Loydan yasalgan jigarrang sopol idish, baland asosli qadahning asos qismi bo'lagi. Asos diametri 5 sm, devor qalinligi 0.6 sm (34-rasm, 1).

**USZ:15**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}337.666$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}231,896$ , dengiz sathidan balandligi 1042 metr. Loydan yasalgan jigarrang sopol idish, ko'za shaklidagi idishning asos qismi bo'lagi, diametri 14 sm, devor qalinligi 0.8 sm, asosi qalinligi 0.8 sm, tashqi sariq angob mavjud (34-rasm, 2).

**USZ:57**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik  $67^{\circ}311.111$ , shimoliy kenglik  $39^{\circ}2237,834$ , dengiz sathidan balandligi 1113 metr. Loydan yasalgan jigarrang sopol idishning qorin qismi, devor qalinligi 1.2 sm, tashqi sariq angob mavjud (34-rasm, 3).



**31-rasm. Zinak yodgorligidagi 2-raqamli yo'l, g'arbdan sharq yo'nalishda**

TARIX



32-rasm. Zinak yodgorligining 276-qabri, shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishda



33-rasm. Zinak yodgorligining 320-raqamli qabri yuzasidan topilgan bronzaning zanglagan qoldiqlari saqlangan barmoq suyagi

**USZT1②:2**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°348.382, shimoliy kenglik 39°2248,79, dengiz sathidan balandligi 1085 metr. Tarkibi zij mayin tuproqli jigarrang sopol idishning asos qismi bo'lagi, asos qismi diametri 9 sm, devor qalinligi 1.3 sm, asos qismi qalinligi 1 sm (34-rasm, 4).

**USZ:37**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°314.495, shimoliy kenglik 39°2249,891, dengiz sathidan balandligi 1077 metr. Dag'al qumli loydan yasalgan jigarrang sopol ko'za shaklidagi idishning dastasining sinig'i. Qalinligi 5.6 sm, uzunligi 5.6 sm, qalinligi 2.6 sm, tashqi sariq angob mavjud (34-rasm, 5).

**USZ:19**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°4.371, shimoliy kenglik 39°2245,345, dengiz sathidan balandligi 1116 metr. Dag'al qumli loydan yasalgan jigarrang sopol idishning qorin qismi bo'lagi, qalinligi 1.2 sm (34-rasm, 6).

**USZ:18**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°4.297, shimoliy kenglik 39°2245,458, dengiz sathidan balandligi 1117 metr. Dag'al qumli loydan yasalgan jigarrang sopol idishning qorin qismi bo'lagi, qalinligi 0.9 sm (34-rasm, 7).

**USZ:56**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°311.099, shimoliy kenglik 39°2237,872, dengiz sathidan balandligi 1113 metr. Loydan yasalgan ko'za shaklidagi jigarrang sopol idishning asos qismi bo'lagi, asosi diametri 12 sm, devor qalinligi 2 sm, asos qismi qalinligi 0.8 sm, tashqi sariq angob mavjud (34-rasm, 8).

**USZ:38**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°314.243, shimoliy kenglik 39°2248,94, dengiz sathidan balandligi 1073 metr. Tarkibida mayda tuproqli jigarrang ko'zaning asos qismi bo'lagi, asos qismi diametri 13 sm, devor qalinligi 0.9 sm, asos qismi qalinligi 1.3 sm, tashqi sariq angob mavjud (34-rasm, 9).

**USZ:61**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°311.074, shimoliy kenglik 39°2237,825, dengiz sathidan balandligi 1113 metr. Loydan yasalgan idishning qorin qismi bo'lagi, diametri 20 sm, devor qalinligi 0.9 sm (34-rasm, 10).

**USZT1②:1**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°348.382, shimoliy kenglik 39°2248,79, dengiz sathidan balandligi 1013 metr. Loydan yasalgan qizil rangli idishning qorin qismi bo'lagi, devor qalinligi 0.6 sm. Sopolning yuza qismida uchta parallel botiq ornamenti mavjud (34-rasm, 11).

## 2. Tosh buyumlar

**USZ:71**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°358.102, shimoliy kenglik 39°2245,859, dengiz sathidan balandligi 1122 metr. Toshdan yasalgan yorg'uchoq, qizg'ish jigarrangda. Ost qismi tekis, yuza qismi egri shaklda. Qirralari silliqlangan va butun tanasi qo'lda ishlov berilgan, diametri 19.2 sm, saqlangan uzunligi 11.4 sm, kengligi 9.4 sm, qalinligi 5.7 sm (35-rasm, 1).


**USZ:70**, Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°314.382, shimoliy kenglik 39°2247,482, dengiz sathidan balandligi 1083 metr. Kulrang toshdan yasalgan yorg'uchoq, yuza qismi to'rtburchak shaklga yaqin, qirralari maxsus shaklga ega emas. saqlangan uzunligi 33.6 sm, saqlangan kengligi 22.3 sm, qalinligi 9 sm. Yuza qismi ishlov berilib silliqlangan (35-rasm, 2).

## 3. Bronza topilma

**USZM320:1**, bronza bilakuzuk. Geografik koordinatasi: sharqiy uzunlik 67°67.29, shimoliy kenglik 39°2330,64, dengiz sathidan balandligi 1017 metr. Keng, tekis bronza simdan yasalgan, bilaguzukning yon tomonlari tashqariga egilgan. Tashqi diametri 6.8 metr, ichki diametri 6 sm, kengligi 2,7 sm, devor qalinligi 0.1 sm (36-rasm).



34-rasm. Zinak yodgorligidan to'plangan sopol bo'laklari  
 1. USZ:29, 2. USZ:15, 3. USZ:57, 4. USZT1②:2, 5. USZ:37, 6. USZ:19, 7. USZ:18, 8.  
 USZ:56, 9. USZ:38, 10. USZ:61, 11. USZT1②:1



1



2

35-rasm. Zinak yodgorligidan topilgan tosh buyumlar. 1. Tosh buyum (USZ:71), 2.  
 Tosh yorg'uchoq (USZ:70)




36-rasm. Zinak yodgorligining 320-qabridan topilgan bronza bilakuzuk.

#### IV. XULOSA

Italiya-O'zbekiston arxeologik guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yuzasiga uyum qurilgan qabrlar bo'lib, ular qadimgi ko'chmanchi xalqlarning qabrlari va asosan Samarqand vohasining janubiy chekkasidagi tog'li hududda tarqalgan[9]. Sazagan va Zinak yodgorliklaridagi qadimiyat izlarining tiplari, miqdori juda ko'p holatda tarqalgan, Samarqand vohasining janubiy chekkasida, Qoratog' va zarafshon tog'larining shimoliy etaklarida hajm jihatdan juda katta ikkita qadimgi ko'chmanchilarga tegishli turar-joy yodgorligi mavjud. Ushbu tadqiqot va oldingi arxeologik qazishma ma'lumotlariga ko'ra, ikkala joy ham ko'p davrlarda foydalanilgan.

1970-yillarda sovet arxeologlari tomonidan Sazag'on yodgorligida 9 ta qabr qazilgan bo'lib, ularning barchasi aylana shaklidagi tosh uyumli va tuproq uyumli qabrlar bo'lgan. Qabrlar ikki xil tipga ajratilib: podboy qabrlar (5 ta) va oddiy yorma tipdagi (4 ta), shuningdek, qorin qismi bo'rtib chiqqan, tag qismi tekis taglik tuvak aniqlandi. 2003-2007-yillarda arxeologik tadqiqot olib borgan O'zbek-Italiyan arxeologiya guruhi Sazag'on yodgorligining antik davr qal'asining yuzasida miloddan avvalgi I – milodiy I asrlarga oid ko'chmanchi xalqlarga tegishli yodgorligi aniqlandi. Qabrlar ham yumaloq shakldagi tosh uyumli va tuproq uyumli qabrlardir, qabrning chuquri vertikal holatdagi tuproq o'ra hisoblanadi. Jasad orqasi bilan yerga qo'yilgan, oyoq-qo'llari ikki yonda cho'zilgan holatda, 西首葬. Topilmalar asosan bronza ko'zgu, temir pichoq, tosh urchuq, shishali munchoqlar, suyakli naycha va boshqalar. Bundan tashqari Qoratog'ning shimoliy yonbag'irlaridagi Orlot qabristoni, Sirlibajtepa qabristoni, Ko'ktepa qabristoni, Agalik qabristoni, shuningdek, Samarqand vohasining shimoliy tomonidagi Akjartepa qabristonida ham bir xil tipdagi qabrlarda qazuv ishlari olib borilgan. Qabrlarning davri miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlar bo'lib, ko'p miqdordagi qabrlarning davri miloddan avvalgi I – milodiy I asrlar qilib belgilangan. Ushbu qidiruv tadqiqotiga ko'ra,



37-rasm. Tojikistondagi tosh bilan o'rab olingan to'rtburchak shakldagi qabr




## TARIX

Sazagon yodgorligining 5 ta hududi va Zinak yodgorliklarida katta miqdorda aylana shakldagi tosh va tuproq uyumli qabrlar, shakliy xususiyatiga ko'ra, avval qazilgan qabrlarga o'xshash bo'lib, davri ham miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlar oralig'i bo'lishi mumkin. Ushbu hududdagi to'rtburchak shakldagi o'rab olingan qabrlar, to'rtburchak shakldagi tosh uyumli qabrlar qazilmagan, ammo Tojikistonning Pomir platosida to'rtburchak shakldagi tosh uyumli va tosh halqali qabrlar qazilgan, ularning davrlari miloddan avvalgi VII-IV asrlar bilan belgilanadi, umuman olganda bular saklarning qabrlaridir (37-rasm)[10]. Sazagon yodgorligining 3-hududida aniqlangan oval shaklidagi tosh uyumli qabrlar musulmon qabrlari hisoblanadi.

Zinak yodgorligining 320-qabridan olingan bronza bilakuzuk va Farg'ona vodiysining Andronova-Tozabog'yob madaniyati qabrlaridan chiqqan bilaguzukka shaklan o'xshash (38-rasm)[11]. Bunday tipdagi bilaguzuklar odatda ayollarning ikki qo'lga taqilgan, shuningdek, har bir qo'lga katta-kichik bo'lgan shaklan o'xshash 3 ta bilaguzuk taqilgan.

XX asrning 60-yillarida Samarqand davlat universiteti va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Zinak yodgorligining sharqiy qismidagi Urgutda qidiruv ishlari vaqtida o'xshash bo'lgan bilaguzuk aniqlangan [12]. Bu ham bir davrga oid bo'lgan madaniyatning merosi hisoblanadi.

Bir vaqtda Sazag'onning 3-hududida 4 ta aylana shakldagi tosh uyumli qabr toshqo'rg'onning shaklini buzganligi aniqlandi. Zinak yodgorligida ham aylana shakldagi tosh uyumli qabr sun'iy platformani buzilganlik hodisasi kuzatildi. Sazag'on yodgorligining 3-hududining 6 ta toshqo'rg'oni, 5-hududining 1 ta toshqo'rg'oni, Zinak yodgorligining 2 ta toshqo'rg'oni yuzasining ko'rinishi to'rtburchak shaklda, devori yer yuzasidan 40 sm baland, o'rta qismi biroz botiq hosil qilgan va tekis yoki pastga biroz cho'kkan holatda. Bunday tipdagi qabrlar Samarqand vohasida oldin qazilmagan. Sharqiy Tiyanshan hududida Xitoyning Sinjon Barkol Shirenzigou yodgorliklar guruhida 10 ta qazib o'rganilgan, ular asosan tog'oldi maydonida va tog'suvi hosil qilgan delta yuqorida joylashgan bo'lib, yarim chuqur shaklidagi turar-joy yodgorligi. Xonaning ichki qismi yer yuzasidan 0.5-1.5 metr chuqurlikda, Xonaning markaziy qismida va devorning ichki tomoni bo'ylab atrofida ustun chuqurlari mavjud. Pol qismida kuygan joylar, o'choq kuzatildi, shuningdek, sopol idish, tosh yorg'uchoq, toshli maydalagich va boshqa topilmalar uchradi. Bular qadimgi ko'chmanchilarning turar-joy yodgorligi bo'lib, davri miloddan avvalgi I asrdan milodiy I asrgacha davom etgan[13]. Sazag'on va Zinak yodgorliklarining toshqo'rg'on yodgorliklari bilan Shirenzigou yodgorligi guruhidagi toshqo'rg'onlarning yuza qismi tuzilish xususiyati o'xshash, bir xil tipdagi yodgorlik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Sazag'on yodgorligining 2-hududi 7-raqamli toshqo'rg'on devorining yer yuzasidan balandligi 1.5 metr bo'lib, devor toshdan qurilgan. Uning shaklan xususiyati va Shirenzigou yodgorligi guruhidagi qazilgan toshqo'rg'onlarga o'xshash. Shirenzigou yodgorligida yer usti toshqo'rg'on uylari yer yuzasida qurilgan, tashqi tomoni aylantirib tosh bilan o'ralgan, tosh devor ichki tomoni va xonaning markaz qismida ko'plab ustun chuqurlari qazilgan. Yer yuzasidan topilgan topilmalar va ularning davri yarim chuqur tipdagi toshqo'rg'onniki bilan bir hil. Shuningdek, yodgorliklardan to'plangan sopol parchalarining davri ilk temir davrining ilk bosqichini (miloddan avvalgi IX-VIII asrlar), antik davr madaniyati (miloddan avvalgi IV-II asrlar), Kushon podsholigi davri (miloddan avvalgi I va milodiy III asrlar), eftallitlar davri (IV-V asrlar), yana bir qanchasi sog'dlar davri (V-VII asrlar), Abbosiylar davri (VII-IX asrlar), Somoniylar davri (874-999-yillar), Qoraxoniylar posholigi davri (927-1212-yillar) ni o'z ichiga oladi, bu shuni ifodalaydiki, yodgorlik uzoq vaqt davomida foydalanilgan.



**38-rasm. Farg'ona vodiysidagi Anronova-Tozabog'yob madaniyati qabri**  
**1. qabr xonasining chizmasi, 2-3. Bronza bilaguzuk, 4-5. Bronza munchoq, 6. Bronza sirg'a, 7-9. Sopol idish.**

Turar-joyning joylashuv holatini ko'radigan bo'lsak, Sazagon yodgorligi Qoratog' tog'ining tog'oldi tepaligida, ochiq relyefda, Sazagon daryosi yodgorlikning o'rtasini kesib o'tgan, suv manbasiga va o'tloqqa boy, qadimgi chorvadorlarning yashishi va chorvani boqishga ideal joy hisoblanadi. Yodgorlikning o'rtasidagi 1-raqamli hudud va 2-raqamli hududda miqdori 10 ta bo'lgan uyumi katta bo'lgan juda katta tipdagi qabrlar tarqalgan bo'lib, qadimgi chorvador xalqalarning aslzodalari ko'miladigan hudud bo'lishi mumkin. 5-raqamli hudud bo'ylab zanjir bo'lib tarqalgan, tartib bilan yuzlab kichik va o'rta tipdagi qabrlar joylashgan. Bu qabilaning o'rta va quyi tabaqa chorvadorlari dafn etiladigan hudud bo'lishi kerak. 4-raqamli maydonning katta qismi zamonaviy qishloq aholisining hovlilari tomonidan egallab olingan va vayron qilingan bo'lsa-da, uning vazifalari ham 5-hududdagi kabi bo'lishi kerak. 3-maydon dastlabki davrlarda mahalliy chorvadorlar to'plangan joy, keyingi davrlarda quyi tabaqa chorvadorlarining kichik qabrlari uchun markazlashtirilgan dafn etiladigan hudud sifatida foydalanilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, Sazag'on yodgorligi Qoratog' tog'larining markaziy qismining shimoliy qavariq yonbag'rida joylashgan bo'lib, Samarqand vohasidan g'arbda Buxoroga va janubi-g'arbda Qashqadaryo vohasigacha bo'lgan asosiy transport yo'lini muhofaza qiladi, muhim harbiy strategik mulohazalar ham bo'lishi kerak. Uning joylashuvini tanlashda muhim harbiy strategiya ham hisobga olingan. Shunga ko'ra, Sazag'onning o'rnini Samarqand havzasining janubiy chekkasidagi qadimgi ko'chmanchilarning yirik manzilgohlaridan biri bo'lishi kerak.

Zinak yodgorligi Zarafshon tog'ining shimoliy va janubiy etaklarini bog'lovchi o'tish yo'lining shimoliy kirish qismining sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, shimolda Samarqand vohasi va janubda Qashqadaryo vohasiga qarab transport uchun qulay. Bu joy tog' oldidagi nisbatan tekkis bo'lgan qiyalikda joylashgan. Uning orqa tomonida yil bo'yi qor bo'lgan baland Zarafshon tog'i joylashgan. Sharqiy va g'arbiy tomondan baland tizmalar katta aylana hosil qiladi. Relefi ochiq, suv manbai mo'l, yashil o'simliklariga boy qadimgi ko'chmanchi xalqlar uchun yozgi ideal yashash joyi hisoblanadi. Zinak yodgorligining eng ko'zga ko'ringan xususiyati ko'p sonli va katta hajmdagi sun'iy platformalardir (39-rasm). Qadimda ko'chmanchi odamlar yon bag'irlarda yashash uchun chodirlar qurishgan, buning uchun sun'iy platformalar kerak bo'lgan. Ushbu tadqiqot davomida 1-sun'iy platformaning kesmasida aniqlangan madaniy qatlamlar qadimgi odamlarning bunday xarobalarda faol bo'lganligini isbotlaydi. Bunday tipdagi sun'iy platforma keyingi davr chorvadorlari tomonidan qayta-qayta foydalanish hodisasi keng tarqalgan. Bunday hodisa qadimgi ko'chmanchi guruhlarning hayotida turli xil yashash shakllariga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Zinak yodgorligining ichidagi sun'iy platforma asosan to'rtta hududda tarqagan va turli funksiyaga ega bo'lishi mumkin:

1. Markaziy hudud uchun 61-68-platformalar bilan ifodalanadi. Yodgorlik hududining markaziy qismida, bo'rtib chiqqan tepalik ustida, baland, tekkis, keng maydon ko'rinadigan yerda joylashgan. Sun'iy platforma yuqoridan pastgacha narvon shaklida taqsimlanadi. Maydoni eng

## TARIX

kattasi 68-raqamli sun'iy platforma bo'lib, uzunligi 156 metr x 140 metrga teng va joylashuvi tartibli.

Bu joydan nafaqat yodgorlik hududining butun g'arbiy, shimol va sharqiy qismlarigina ko'rinib qolmasdan, balki yodgorlik hududining janubiy qismidagi tog' chuqurligidagi platforma bilan ham yaxshi ko'rinishni saqlaydi. Ayni paytda markaziy hudud g'arbda shimol janub yo'nalishida yirik jarga tutashgan.

Katta jarning ikki tomoni tik, chuqurligi o'n metrdan ortiq bo'lib, g'arbiy hududdan 70-100 metr uzoqlikda joylashgan. Mudofaa qilish oson, lekin hujum qilish qiyin bo'lgan hudud, bu markaziy hududni himoya qilish uchun tabiiy to'siq hisoblanadi.

Bundan tashqari, markaziy hudud yodgorlikdan o'tuvchi 2-sonli qadimiy yo'lning boshlang'ich nuqtasida joylashgan. Yo'l janubi-sharqqa, yodgorlikning sharqiy qismida sun'iy platformalar to'plangan hududdan o'tadi va u erga olib boradi. Hujaduk qishlog'ining janubidagi boy suv manbalariga ega hudud. U transport, suv tashish va yodgorlikdagi boshqa kundalik hayot uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ta'minot uchun asosiy yo'ldir. Shuning uchun markaziy hudud Zinak yodgorligidagi boshqaruv markazi hudud bo'lishi mumkin.

2. Sharqiy hudud tog'oldi tepaligining markaz qismining quyi tomoni, biroz tekis qismida joylashgan, hudud bo'ylab tarqagan ko'plab yirik sun'iy platformalar mavjud. Maydoni kattarog'i masalan, 56-raqamli sun'iy platforma, uning uzunligi 158X120 metr.



**30-rasm. Zinak yodgorligidagi sun'iy platformaning uzoqdan ko'rinishi, shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishda**

Platformalar nafaqat shimoldan janubga narvon shaklida, balki sharqdan g'arbgaga bog'langan, qatorlar va ketma-ketlikni ham saqlagan holatda taqsimlangan. U markaziy va janubiy hududlarga nisbatan mudofaa tendentsiyasini shakllantirgan. Bu hudud, ehtimol, aholi punkti qo'shinlari joylashgan joy bo'lgan.

3. Janubiy hudud relyefi biroz tik bo'lgan maydonda joylashgan. Suniy platformalar janubdan shimolga va yuqoridan pastga qarab narvon shaklida tarqalgan. Masshtabi markaziy va sharqiy hududlardagi sun'iy platformalarga qaraganda kichikroq. Bu hududning kuzatuv nazorati markaziy hududdagidek yaxshi emas, lekin u ham tik tog' tizmalari bilan o'ralgan va nisbatan xavfsiz va yashirin. Shu bilan birga, bu hudud markaziy hududga tutash bo'lib, ikki hududda bir-birini ko'rishi imkoniyatiga. Hududning shimoliy tomoni bo'ylab 2-raqamli qadimiy yo'l o'tadi, bu esa hayotiy ehtiyoj mahsulotlarini tashish va yetkazib berishni osonlashtiradi. Hududda ma'lum bir harbiy kuzatuv funksiyasi bo'lishi mumkin.

4. G'arbiy hudud va markaziy maydon bir-biridan katta jar bilan ajratilgan bo'lib, tog' yonbag'rida oz sonli sun'iy platformalar mavjud. Tog' etagini Zinak qishlog'idagi zamonaviy uylar egallagan. Faqat ikkita toshqo'rg'on aniqlandi, dastlabki turar-joy qoldiqlarining aksariyati vayron bo'lgan, bu hududning funktsional xususiyatini aniqlashni imkonsiz qiladi. Tekshiruv davomida topilgan yodgorlik va topilmalarga qaraganda, Zinak manzilgohi dastlab so'nggi bronza davrida Andronova-Tozabog'yob madaniy odamlari yashagan hudud bo'lgan, shundan so'ng u uzoq vaqt davomida sun'iy platformalar va toshqo'rg'onlari mavjud hududga aylangan va qadimgi ko'chmanchi xalqlarning turar-joy shaklidagi keng ko'lamlı manzilgohi bo'lib, keyinchalik qadimgi ko'chmanchi xalqning o'rta va quyi tabaqa chorvadorlari uchun markazlashgan dafn etilgan joy bo'lgan. Turar-joy qoldiqlari va qabrlarning aksariyati ushbu tadqiqot natijasida birinchi marta topildi va tasdiqlandi. Bu hududlarda arxeologik qazishmalar hali amalga oshirilmagan, shuningdek, yodgorlikning davriy bosqichi va davriga aniqlik kiritish keyingi arxeologik tadqiqotlarda tasdiqlanadi. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqot natijalari shuni ifodalaydiki, miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlarda ketma-ket saklar, sarmatiylar, yuejilar, eftaliylar kabi qadimgi chorvador qabilalarning ketma-ket chorvachilik bilan shug'illanib g'arbiy Tiyanshanning g'arbiy hududlarida yashashgan. Samarqand vohasining janubiy chekkasida topilgan ko'chmanchi xalqlarning saqlanmalari bu xalqlar bilan bog'liqligi bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bu safar arxeologik qidiruv ishlari olib borilgan Sazagan va Zinak yodgorliklari Samarqand vohasining janubiy chekkasida joylashgan qadimgi ko'chmanchilarning ikkita yirik manzilgohidir. Tekshiruv ishi davomida hududdagi qadimiy ko'chmanchilar madaniy yodgorliklarining turlari, tarqalish shakllari va yashash joylari haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ldi. Bu kelajakdagi chuqur arxeologik qidiruv ishlari va tadqiqot ishlari uchun muhim ma'lumotlar beradi.

Izoh: Ushbu tadqiqotda ishtirok etuvchi xodimlar qatoriga O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti: A. Berdimurodov, M. Xasanov, K. Raximov, Shimoli-g'arbiy universitetining Madaniy meros instituti: Vang Jianxin va Ma Jian, Xitoyning Umurtqali hayvonlar paleozoologiyasi va paleoantropologiya instituti: Chjou Xinyin, Chjenchjou universitetining Tarix instituti: Sun Vey, Shaansi provinsiyasi Arxeologiya institutidan Chen Aidong, Xi'an Xalqaro chet tillar universiteti Sao Xui.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] Sakov A I. Sarazm: An Agricultural Center of Ancient Sogdiana. The Archaeology and Art of Central Asia Studies From the Former Soviet Union, 1994, 8: 1-12.

Masson V M. The Bronze Age in Khorasan and Transoxania. History of Civilizations of Central Asia, Vol. I, UNESCO, 1992: 232-244.

[2] Mallory J P. Tazabagyab Culture. Encyclopedia of Indo-European Culture, 1997: 566-567.

[3] Rondelli B, Tosi M. CIS and Silk Road studies: Monitoring landscape and population changes at Samarkand and in the Middle Zeravshan Valley. Reading Historical Spatial Information from around the World: Studies of Culture and Civilization based on Geographical Information Systems Data, 2006:459-489.

[4] Obel'fchenko O V. Agaliksaiskie Kurgani. Istorija material' fnojkul' ftury Uzbekistana, 1972, 9: 56-72.

[5] Obel'fchenko O V. Sazaganskıe Kurgani. Istorija material' fnojkul' ftury Uzbekistana, 1966,7: 66-80.

[6] Obel'fchenko O V. Moghilnik Ak-djar tepa. Istorija material' fnojkul' ftury Uzbekistana, 1962, 3: 57-70.

[7] Simone Mantellini. "Dwelling dynamics, territory exploitation, and trade routes in the ancient Samarkand oasis (Uzbekistan)", *Archeologia delle "Vie della Seta": Percorsi, Immagini e Cultura Materiale Il Ciclo di Conferenze*, 2013: 41-42.

[8] Bonora G L, et al. Carta Archeologica della Media Valle dello Zeravshan: aspetti diversificati per una comprensione diacronica del popolamento antico. Missione Archeologica Italo-Uzbecka a Samarcanda: campagna 2002, OCNUS: Rivista della Scuola di Specializzazione in Archeologia, 2003,11: 35-63.

[9] Tosi M, Berdimurodov A, Franceschini F, et al. La Carta Archeologica Della Media Valle Dello Zeravshan: Strategie e Metodi Per La Storia Del Popolamento Nella regione Di Samarcanda. //The Role of Samarkand in the History of World Civilization: Materials of the International Scientific Symposium devoted to the 2750th Anniversary of the City of Samarkand. Tashkent-Samarkand: Fan, 2007: 68-73.

[10] Б.А.Литвинский, Древние Кочевники Крыши Мира. Москва: НАУКА, 1972.

[11] Исаков А И. Богатое женское погребение из Саразма: 64-70.

Исаков А И. Потемкина Т М. Могильник плохи эпохи Ёроны в Таджикистане: 145-167.

[12] Археологическая карта памятников самаркандской области, Том 2. Ташкент 2010: 271.

[13] 马健, 王建新, 赵汗青等: 《新疆巴里坤石人子沟遗址 F 2 发掘报告》, 《考古与文物》2014年第5期, 第3-14页; 王建新、张凤、任萌等: 《新疆巴里坤县东黑沟遗址2006—2007年发掘简报》, 《考古》2009年第1期, 第3—27页